

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MASALALAR YECHISH ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Basharov.T**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistri

### *ANNOTASIYA*

*Bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalash boshlang'ich maktab matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisiga matematika fanidan nafaqat nazariy ma'lumotlar berish, balki o'rganilayotgan bilimlarni asosli va mukammal bo'lishini amaliy masalalar yordamida ko'rsatish, ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar.** Matematika, masala, mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, abstraktsiyalash, konkretlashtirish*

Matematika darslarida masalalar yechish fanni o'zlashtirishning, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matnli masalalar boshlang'ich sinf matematika fani mazmunining asosini tashkil etib, ularni yechish jarayonida qo'llaniladigan aqliy faoliyat usullari: analiz, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, abstraktsiyalash va konkretlashtirish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning matematikaga qiziqishlarini ham tarbiyalashga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar mazmuni, ular orasidagi bog'lanishlar, amal komponentlari, turli miqdorlar va ular orasidagi bog'lanishlar sodda masalalar orqali mustahkamlanadi. Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish

uchun zarur, bo'ladigan bilimlar malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda masalalar yechish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuv, asosli xulosa chiqara olish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Buning uchun dars jarayonida turli qiziqarli, mantiqiy, nostandart masalalarni yechish yaxshi natija beradi. Natijada qatnashuvchilarda darsga qiziqish uyg'onadi, faolligi ortadi. Qiziqarli mantiqiy masalalarni yechish davomida oldin matnni diqqat bilan o'qish talab qilinadi, keyingi jarayon qatnashuvchida aqliy faoliyat usullari: analiz, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirish amalga oshiriladi. Mantiqiy masalalarni yechish davomida o'quvchi noma'lumni topishda uni qaysi hayotiy faoliyatga bog'liqligini aniqlash, ma'lum xossalariga ko'ra guruhlab va ajratib olish qobiliyatiga ega bo'lishi, chuqur mulohaza qilishi, bu qatnashuvchidan nazariy bilimlarni egallanganligini talab qiladi. Hozirgi kunda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bunga asosan darsliklar va dasturlar xalqaro talablar asosida o'zgartirildi. Matematika darsligida mantiqiy, qiziqarli, nostandart, hamda xalqaro baholash dasturlari asosidagi masalalar bilan boyitilgan.

Mantiqiy masalalarda keltirilgan holatlar, vaziyatlarni tahlil etish asosida o'quvchilar zaruriy axborotni izlash va ajratish ko'nikmalarini egallaydilar, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatadilar, mulohaza qilishning mantiqiy zanjirini qurib, konkret shartlarga tayangan holda masalaning eng qulay samarali yechish usullarini tanlash va yechish kabi o'quv faoliyatining kompetensiyaisi shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari va mezonlari N. F. Talyzina, N. A. Menchinskaya, N. B. Istomina kabi olimlar tahliliga ko'ra 1-jadvalda o'z aksini topgan.

## 1-jadval

### Mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari va mezonlari

Ko'rsatkichlari	Mantiqiy fikrlashni shakllantirish mezonlari
Analiz	Bir butunni qismlarga bo'lish, alohida alomatlarini ajratish qobiliyati
Sintez	Tahlil natijasida ajratib olingan alohida elementlarni birlashtirish qobiliyati
Taqqoslash	Alohida ob'ektlarning o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash qobiliyati
Umumlashtirish	Ob'ektlar va hodisalarni mavjud xususiyatlar va alomatlar bo'yicha birlashtirish qobiliyati
Tasniflash	Ob'ektlarni ayrim xossalari asosida ajratish va birlashtirish qobiliyati
Natija	Haqiqat ob'ektlari va hodisalari o'rtasidagi aloqalarni inkor etish yoki tasdiqlash qobiliyati
Xulosa	Bir yoki bir nechta hukmlardan yangi hukm ajratish qobiliyati

D. B. Elkonin – V. V. Davidov tizimini ko'rib chiqib, xulosa qilishimiz mumkin: bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun o'qituvchi qatnashuvchilarga mustaqil ravishda xulosalar chiqaradigan, qoidalarni shakllantiradigan va xulosalar chiqaradigan vazifalarni berishi kerak. Va eng muhimi, ushbu tizimda individual yondashuv mavjud bo'lib, natijalar turli qatnashuvchilar uchun bir xil bo'lishi mumkin emas.

Bir nechta mantiqiy masalalarni ko'rib chiqaylik. **To'plam elementlarini tartiblashga doir mantiqiy masalalar.** Bu turdagi masalalarni yechishning asosida tartib munosabati tushunchasi yotadi:  $R$  munosabat  $X$  to'plamda bir vaqtning o'zida antisimmetriklik va tranzitivlik xossalari ega bo'lsa, bu munosabat tartib munosabat deyiladi. Agar  $X$  to'plamda tartib munosabati berilgan bo'lsa, u holda  $X$  to'plam shu munosabat yordamida tartiblangan deyiladi. Shuning uchun bu turdagi masalalarni yechishda berilgan to'plam elementlarini to'g'ri tartiblash muhimdir.

1- **masala.** Anvarning bo‘yi Olimdan baland, Karimdan esa past. Bolalardan qay birining bo‘yi eng baland ekanini aniqlang?

Yechish. Dastlab, masala modelini quramiz. Bu holda to‘g‘ri chiziq “bo‘y chizig‘i” vazifasini o‘taydi. Shuning uchun o‘quvchilar bilan bolalarni to‘g‘ri chiziqda ularning bosh harflari ko‘rsatilgan nuqtalar bilan, hamda ularning bo‘yi pastrog‘ini to‘g‘ri chiziqda chaproqda, bo‘yi balandrog‘ini esa o‘ngroqda belgilashga kelishib olamiz. So‘ngra tartib bilan masalaning har bir shartni to‘g‘ri chiziqda belgilaymiz:

Anvarning bo‘yi Olimdan baland, demak A nuqta O nuqtadan o‘ngda joylashadi;

    O    .                    A                    .                    K    .

Anvarning bo‘yi Karimdan past bo‘lsa, u holda Karimning bo‘yi Anvardan baland bo‘ladi, demak, K nuqta M nuqtadan o‘ngda joylashadi. To‘g‘ri chiziqda nuqtalarning joylashishidan bolalarning bo‘yi eng balandi- Karim ekanligini aniqlaymiz.

**Xulosa** qilish mumkinki o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda masalalar muhim rol o‘ynaydi, bunda o‘quvchi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki ularni qo‘llay olish, masalalarni turli hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olish, to‘g‘ri xulosa chiqara olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdiravupovich, K. Y. (2023). Integrated Approach to Mathematical Education in a Pedagogical University. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(6), 377-380.

2. Abduvaitovna, B. M. (2022). The role of pedagogy and psychology in improving the methodology of teaching mathematics in general secondary schools on the basis of a competency-based approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 37-40.

3. Abduvaitovna, B. M. (2022, March). The importance of didactic games in the formation of interdisciplinary teaching competencies. In E Conference Zone (pp. 70-75).
4. Abduvaitovna, B. M. (2022). Development of Methods for the Formation of Interdisciplinary Competencies in the Education System. *Academicia Globe*, 3(03), 137-142.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/matematika-darslarida-boshlangich-sinf-o-quvchilarining-mantiqiy-fikrlashlarini-shakllantirish/viewer>
5. Babayeva, M. A. (2021). Implementation of a competency-based approach to Teaching Mathematics. *Asian journal of multidimensional research*, 10(4), 391-394.
6. Babayeva, M. A., & Samatova, M. N. (2023). Ta'limda kreativlik va uni rivojlantirish bosqichlari. *Scholar*, 1(13), 34-38.
7. Babayeva, M. A. (2023). O 'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik-texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish garovidir. *SCHOLAR*, 1(17), 21-24.
8. Babayeva, M. A., & Turdiyev, S. (2023). Fanlararo aloqadorlik asosida darslarda vektorlarning fizik va geometrik talqinlarini bayon etish texnologiyasi. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 158-163.
9. Mahmudov, Y. G., & Khakkulov, Y. A. (2021). Methods Of Solving Various Types Of Problems From Algebra To Science. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 1-6.
10. Khakkulov, Y. A. (2020, October). Improving the methodology of solving various types of interdisciplinary problems in algebra on the example of the mechanics section of physics. In *Archive of Conferences* (Vol. 6, No. 1, pp. 35-6).
11. Зак, А. З. 600 игровых задач для развития логического мышления детей [6-15 лет] [Текст] : популяр. пособие для родителей / А. З. Зак. – Ярославль : Акад. развития, 1998. – 192 с.
12. Khakkulov, Y. A., & Babaeva, M. A. (2020). Principle of professional direction in mathematical education of future teacher. *Theoretical & Applied Science*, (5), 424-426